

Shaturayeva Sevara Tashmurotovna,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
Pedagogika universiteti tayanch doktoranti
s_shaturaeva@gmail.com,
<https://orcid.org/0000-0002-0377-3637>

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARIGA TARIX O'QITISH FANI METODIK KURSIDA JADIDLAR ILMIY MEROSINI O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida jadidlar ilmiy merosini o'rgatishning metodik asoslari yoritilgan. Jadidchilik harakatining ta'limiy, ma'naviy va ijtimoiy g'oyalari zamonaviy tarix ta'limi jarayonida qanday metodlar orqali talabalarga singdirilishi mumkinligi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada jadidlar pedagogik merosining tarixiy ahamiyati, ularning didaktik qarashlarini o'qituvchilarni tayyorlash kurslariga integratsiya qilishning samarali yo'llari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: jadidlar, ilmiy meros, tarix o'qitish metodikasi, pedagogik innovatsiya, kompetensiyaviy yondashuv, milliy qadriyatlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДОВ В МЕТОДИЧЕСКОМ КУРСЕ ДИСЦИПЛИНЫ “ПРЕПОДАВАНИЕ ИСТОРИИ” ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Аннотация. В статье рассматриваются методические основы изучения научного наследия джадидов в процессе подготовки будущих учителей истории. Анализируется, каким образом образовательные, духовно-нравственные и социальные идеи джадидского движения могут быть интегрированы в современный курс методики преподавания истории. Особое внимание уделяется историческому значению педагогического наследия джадидов и его роли в формировании профессиональных и ценностных компетенций студентов.

Ключевые слова: джадиды, научное наследие, методика преподавания истории, педагогические инновации, компетентностный подход, национальные ценности, личностно-ориентированное обучение.

THE METHODOLOGY OF TEACHING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF THE JADIDS IN THE METHODOLOGICAL COURSE OF “HISTORY TEACHING” FOR FUTURE HISTORY TEACHERS

Annotation. This article explores the methodological foundations of teaching the scientific heritage of the Jadids in the training process of future history teachers. It analyzes how the educational, moral, and social ideas of the Jadid movement can be effectively integrated into the modern course of history teaching methodology. The study highlights the historical significance of the Jadids' pedagogical legacy and its role in developing students' professional and value-based competencies. The research employs modern pedagogical approaches such as learner-centered education, axiological analysis, and historical-cultural integration to enhance the quality of teacher preparation.

Keywords: Jadids, scientific heritage, history teaching methodology, pedagogical innovation, competency-based approach, national values, learner-centered education.

Bugungi globallashuv va ma'naviy yangilanish jarayonida O'zbekiston ta'lim tizimida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va madaniy o'zlikni tiklashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tarix ta'limida jadidlar ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganish nafaqat ma'naviy

tarbiya vositasi, balki pedagogik jarayonning mazmuniy va metodik asosini boyituvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Jadidchilik harakati o'z davrida xalqni uyg'otish, ilm-fan va ma'rifat orqali jamiyatni taraqqiyot sari yo'naltirish g'oyasini ilgari surgan bo'lib, u zamonaviy ta'lim nazariyasi va metodikasi uchun bebaho manbadir. Jadidlarning pedagogik qarashlari, o'quv jarayonini milliy va zamonaviy qadriyatlar asosida tashkil etish haqidagi fikrlari bugungi o'qituvchi tayyorlash tizimi uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni, tahliliy yondashuvni, tanqidiy fikrlashni shakllantirishda jadidlar merosidan samarali foydalanish zarurdir.

Jadidlar O'zbekiston tarixida milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik harakatining eng yorqin namoyandalari sifatida ta'lim tizimini tubdan isloh etish g'oyasini ilgari surdilar. Ular maktablarda "usul ul-jadid" yoki "yangi usul" ta'lim tizimini joriy etish va rivojlantirish orqali o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik talablarga moslashtirishni maqsad qilgan edilar. Jadidlar bu yo'lda o'zlarining mavjud barcha resurslarini — iste'dodlarini, shaxsiy mablag'larini, mulklarini, siyosiy va madaniy institutlarni, shuningdek, matbuot, teatr, ma'rifat uylari kabi ijtimoiy-madaniy vositalarni — safarbar etdilar. Ularning bu faoliyati ko'plab to'siq va tazyiqlarga duch keldi: dastlab chor hukumati, keyinchalik sho'rolar tuzumi, shuningdek, ichki qarshilik kuchlari — qadimchi va mutaassib ulamolar tomonidan tazyiq, quvg'in va ta'qiblarga uchragan bo'lsalar-da, jadidlar o'zlarining tanlagan yo'lidan og'madi.

Jadid ma'rifatchilari xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg'otish, millatni jaholatdan qutqarish va uni ilm-fan, madaniyat, erkin fikrlash ruhida tarbiyalashni o'z hayotlarining ma'naviy burchi deb bildilar. Ular demokratik, mustaqil, farovon jamiyat barpo etish yo'lida fidokorona mehnat qildilar, bu yo'lda ko'pincha o'z umrlarini ham fido etdilar. Shu bois, jadidlar merosi nafaqat tarixiy, balki pedagogik, sotsiologik va aksiologik jihatdan ham bebaho ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda ularning ilmiy-ma'rifiy faoliyatini o'rganish, boy ma'naviy merosini chuqur tahlil etish, hamda ularni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Bu jarayon yoshlarda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, tanqidiy tafakkur va axloqiy yetuklikni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev o'z Murojaatnomasida bu masalaga alohida urg'u berib, shunday deydi:

"Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'targan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur."

Mazkur fikrlar jadidlar faoliyatining bugungi ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy va ideologik ahamiyatini yanada chuqur anglash zarurligini ko'rsatadi. Demak, jadidlar merosini o'rganish va uni yoshlar ongiga singdirish — milliy ta'lim tizimini yangilash, milliy o'zlikni mustahkamlash va ma'naviy yangilanish jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir.

Tarix o'qitish metodikasi kursida jadidlar ilmiy merosini o'rganishning asosiy maqsadi — talabalarda tarixiy ong va milliy identifikatsiyani rivojlantirish, ularni o'tmishdan saboq olish va zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'un fikrlashga o'rgatishdir. Bu jarayon shuningdek, o'quvchilarga tarixni faqat voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki ijtimoiy ong, madaniy o'zgarish va ma'naviy yuksalish tizimi sifatida anglatish imkonini beradi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida zamonaviy pedagogik innovatsiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik tahlil, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarixiy-madaniy integratsiya tamoyillari asos qilib olinadi. Jadidlar ta'lim tizimida ilgari surgan ilg'or pedagogik g'oyalar — masalan, integrativ yondashuv, tahliliy tafakkurni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni o'quv jarayoniga singdirish kabi jihatlar — bugungi ta'lim islohotlari bilan uyg'unlashadi.

Shu boisdan, bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida jadidlar ilmiy merosini o'rgatish ularning kasbiy kompetensiyasi, pedagogik refleksiyasi, ilmiy-nazariy dunyoqarashi va milliy ongini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu nafaqat tarix fani metodikasining

50 samaradorligini oshiradi, balki ta'lim jarayonining ma'naviy-axloqiy yo'nalishini mustahkamlaydi, yosh avlodni milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalaydi.

Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jadidlar ilmiy-ma'rifiy merosi, ularning pedagogik qarashlari va ta'lim tizimidagi islohotchilik faoliyati masalalari turli yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, ularni zamonaviy tarix ta'limi metodikasiga integratsiya qilish masalasi hanuzgacha yetarlicha tizimlashtirilmagan.

XX asr boshlarida jadidlar harakati Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy uyg'onishida muhim rol o'ynagan. Ismoil G'aspirinskiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar o'z asarlarida xalqni ilm-fan, zamonaviy ta'lim va milliy o'zlikni anglash sari yetaklash g'oyasini ilgari surdilar. Ularning ilmiy va pedagogik merosi nafaqat o'sha davrda, balki bugungi ta'lim tizimi uchun ham metodologik ahamiyatga ega.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, A. Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'limning axloqiy va tarbiyaviy jihatlariga e'tibor qaratgan bo'lsa, Behbudiy "Padarkush" asari orqali ijtimoiy adolat, ilm va ma'rifatning jamiyat hayotidagi o'rnini yoritgan. Fitrat esa o'zining ilmiy-nazariy qarashlarida o'qituvchining jamiyatdagi o'rnini va mas'uliyatini, o'quvchilarda mustaqil tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarurligini asoslab bergan. Bu g'oyalar zamonaviy tarix o'qitish metodikasida ham o'z aksini topmoqda.

So'nggi yillarda o'zbek pedagogika fanida jadidlar merosini o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, H. Tursunov, G. Yuldasheva, M. Sodiqova, A. Karimov, Z. Shodmonovalarning ishlarida jadidchilikning pedagogik mohiyati, milliy uyg'onish jarayonidagi o'rnini va uning ta'limdagi aks sadosi ilmiy asosda tahlil qilingan. Biroq, bu tadqiqotlarda bo'lajak tarix o'qituvchilarining metodik tayyorgarligida jadidlar merosidan foydalanishning amaliy jihatlarini to'liq ochib berilmagan.

Tadqiqotda shuningdek, empirik tahlil, kontent-analiz, taqqoslash va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida tarix o'qitish fani metodik kursi mazmuni, jadidlar merosining o'quv dasturlariga kiritilish darajasi va talabalarning bu boradagi bilim ko'nikmalari o'rganildi.

Natijada, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, jadidlar merosini o'rganish bo'yicha metodik faoliyatni tashkil etish bugungi ta'lim tizimi uchun innovatsion yondashuv, milliy qadriyat va zamonaviy metodika sintezini ta'minlovchi muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining didaktik madaniyatini shakllantirish bugungi pedagogik ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Didaktik madaniyat o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, metodik tafakkuri, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarining uzviy birligini ifodalaydi. Shu bois, bu jarayonni shakllantirishda nafaqat nazariy bilimlar, balki aksiologik qadriyatlar tizimi, pedagogik refleksiya, metakompetensiyalar ham muhim o'rin tutadi.

Mazkur yo'nalishda didaktik madaniyatni rivojlantirish meta-fan komponentlari asosida ko'rib chiqilishi lozim. Ular qatoriga shaxsiy-faoliyatli yondashuv, motivatsion-qadriyat yo'nalishi, loyihalash va texnologik kompetensiyalar, shuningdek, vatanparvarlik, siyosiy savodxonlik, tanqidiy fikrlash, barqaror fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy-madaniy savodxonlik kabi integral elementlar kiradi. Ushbu komponentlar o'qituvchi shaxsining kasbiy shakllanishida aksiologik, sotsial va kommunikativ jihatdan muvozanatli tizimni vujudga keltiradi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning holati, tarix fanini o'qitishning o'ziga xos didaktik xususiyatlari, talabalarning motivatsion tayyorgarligi, pedagogik refleksiya darajasi hamda o'quv jarayonining kasbiy yo'naltirilganligi qator metodologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni samarali hal etish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik tahlil va integrativ ta'lim metodlaridan foydalanish zarur.

Natijada, bo'lajak tarix o'qituvchilarida didaktik madaniyatni shakllantirish — bu ularning kasbiy refleksiyasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, tahliliy fikrlash qobiliyati va ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan kompleks pedagogik jarayondir.

Olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jadidlar ilmiy merosini tarix o'qitish metodik kursiga integratsiya qilish nafaqat talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularning pedagogik tafakkuri, ma'naviy qadriyatga sadoqati va milliy o'zlikni anglash darajasini ham sezilarli ravishda oshiradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, bo'lajak tarix o'qituvchilari jadidlar merosiga asoslangan ta'lim yondashuvlari orqali tarixiy jarayonlarni tanqidiy, komparativ va aksiologik nuqtai nazardan tahlil etish ko'nikmasini rivojlantiradilar. Bunda interfaol metodlar (muammoli o'qitish, klaster, konseptual xarita, keys-stadi, debat texnologiyalari) jadidlar pedagogik g'oyalari bilan uyg'un qo'llanilganda yuqori samaradorlikka erishiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, jadidlar ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganish talabalarda quyidagi natijaviy kompetensiyalarni shakllantiradi:

1. Pedagogik-kommunikativ kompetensiya – o'qituvchi sifatida o'z fikrini ilmiy asosda, dalillarga tayangan holda ifoda eta olish.
2. Metodik kompetensiya – tarixiy materialni tahlil qilish, tarixiy manbalarni to'g'ri tanlash va ularni o'qitish jarayonida samarali qo'llash.
3. Aksiologik kompetensiya – milliy qadriyatlarni anglash, tarixiy xotiraga hurmat bilan qarash, jadidlar g'oyalarini zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirish.
4. Kreativ va reflektiv kompetensiya – mustaqil fikrlash, o'z pedagogik faoliyatini tahlil etish va yangilik yaratishga intilish.

Muhokama davomida aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iboratki, jadidlar asarlarida ilgari surilgan "ilm va ma'rifat orqaligina taraqqiyotga erishish" g'oyasi bugungi ta'lim islohotlarining mazmuni bilan bevosita uyg'unlikda. Shuning uchun bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida jadidlar qarashlaridan metodik vosita sifatida foydalanish ta'lim jarayonini mazmunan boyitadi va maqsadga yo'naltiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarix o'qituvchilarining metodik tayyorgarligida jadidlar merosini o'rganish motivatsion, kognitiv va amaliy komponentlar asosida tashkil etilganda o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlari oshadi. Talabalar darslarda jadidlarning pedagogik qarashlarini tahlil qilish, ularning tarixiy faoliyatiga oid manbalarni o'rganish orqali o'zlarining mustaqil ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Natijaviy tahlil shuni ko'rsatdiki, jadidlar merosini tarix o'qitish faniga singdirish:

- tarix fanining didaktik, tarbiyaviy va ma'naviy salohiyatini kuchaytiradi;
- o'qituvchilarda milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlaydi;
- tarixiy haqiqatni ilmiy ob'yektivlik asosida tahlil qilishga undaydi;
- zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion metodlar bilan milliy qadriyatlar sintezini ta'minlaydi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni tasdiqlaydiki, jadidlar ilmiy merosini o'rgatish metodikasi bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy shakllanishida strategik ahamiyatga ega, ularning pedagogik tafakkuri, ilmiy dunyoqarashi va axloqiy pozitsiyasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, jadidlar ilmiy merosini tarix o'qitish metodik kursi mazmuniga integratsiya qilish, bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy, metodik va ma'naviy-aksiologik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan ilmiy natijalar shuni ko'rsatadiki, jadidlar pedagogik g'oyalari – milliy uyg'unish, ma'rifat, ijtimoiy adolat, mustaqil fikrlash va ilmga tayanish tamoyillari — zamonaviy pedagogik jarayon bilan uzviy uyg'unlikda rivojlantirilishi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonining innovatsion, tarixiy va ma'naviy-kompetensiyaviy asoslarini boyitadi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining metodik tayyorgarligida jadidlar asarlarini o'rganish ularning pedagogik tafakkuri, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati, tarixiy tafakkur madaniyati va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Jadidlar merosini o'rgatishda aksiologik, hermenevtik, komparativ va tarixiy-tahliliy yondashuvlardan foydalanish jarayonning ilmiylik va samaradorlik darajasini oshiradi.

Natijada, tarix o'qitish fani metodik kursiga jadidlar merosini singdirish:

- ta'lim jarayonining mazmuniy yangilanishini ta'minlaydi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini mustahkamlaydi;
- bo'lajak pedagoglarning ma'naviy yetukligi va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytiradi;
- ularni ijtimoiy faol, vatanparvar va tafakkuriy jihatdan mustaqil mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, jadidlar ilmiy merosini tarix o'qitish metodikasiga tatbiq etish, nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshiradi, balki ta'limning milliy g'oyaviy asoslarini mustahkamlash va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев, Ш. М. (2021). *Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси*. — Тошкент: Ўзбекистон, 320 б.
2. Каримов, И. А. (1998). *Юсак маънавият — енгилмас куч*. — Тошкент: Маънавият, 176 б.
3. Авлоний, А. (1992). *Туркий гулистон ёхуд ахлоқ*. — Тошкент: Ўқитувчи, 184 б.
4. Абдуллаев, А. (2018). *Педагогик методология ва таълим технологиялари*. — Тошкент: Fan va texnologiya, 240 б.
5. Хамдамова, М. (2020). *Тарих фанини ўқитишда инновацион ёндашувлар*. — Самарқанд: Дурдона, 156 б.
6. Saidov, A., & Rasulova, N. (2022). *Historical thinking in teacher education: methodological perspectives*. — *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 3(4), 45–53.
7. Farxodjonova N. F. THE IMPORTANCE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF THE JADIDS IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY // Экономика и социум. – 2022. – №. 10-2 (101). – С. 33-35.
8. Мирзагитова Алсу Линаровна К вопросу формирования критического мышления у будущих учителей истории // КПЖ. 2015. №4-1.
9. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. — New York: Macmillan, 91 p.
10. S.T. Shaturayeva BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARIGA JADIDLAR ILMIY ME'ROSINI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH // Inter education & global study. 2024. №7.